



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**BALANCE BETWEEN FREEDOM OF SPEECH AND PROTECTION  
AGAINST DISINFORMATION IN THE DIGITAL MEDIA ERA: A  
COMPARATIVE ANALYSIS OF INTERNATIONAL STANDARDS AND  
NATIONAL PRACTICES**

**Fatkullayeva Sevarakhon Ravshan kizi**

Tashkent State University of Law

Master's student

e-mail: [sevarafatkullayeva@gmail.com](mailto:sevarafatkullayeva@gmail.com)

**Abstract:** This thesis analyzes the scientific and theoretical foundations of the interrelationship between freedom of expression and disinformation in the digital media era, as well as the need to ensure a proper balance between them. The thesis examines the role of freedom of expression in a democratic society, the modern forms of disinformation, and their impact on human rights. In addition, theoretical approaches are comparatively analyzed, and their advantages and limitations are assessed.

**Keywords:** freedom of expression, disinformation, human rights, digital media, international standards, information security.

**SO‘Z ERKINLIGI VA DEZINFORMATSIYA O‘RTASIDAGI  
MUVOZANATNI TA‘MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**Fatxullayeva Sevaraxon Ravshan qizi**

Toshkent davlat yuriik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

e-mail: [sevarafatkullayeva@gmail.com](mailto:sevarafatkullayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi raqamli media davrida so‘z erkinligi va dezinformatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularning muvozanatini ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Ushbu tezisdagi so‘z erkinligining



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

demokratik jamiyatdagi o‘rni, dezinformatsiyaning zamonaviy shakllari va ularning inson huquqlariga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, nazariy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning afzallik va cheklovlari baholanadi.

**Kalit so'zlar:** so‘z erkinligi, dezinformatsiya, inson huquqlari, raqamli media, xalqaro standartlar, axborot xavfsizligi

### **Kirish**

Raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida axborot makoni tubdan transformatsiyaga uchrab, so‘z erkinligini amalga oshirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Shuni ta’kidlash joizki, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar har bir shaxsga axborotni tezkor yaratish va ommaga yetkazish imkonini berib, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etish uchun yangi sharoitlarni yuzaga keltirdi. Biroq, ayni paytda ushbu jarayon axborot oqimining nazoratsiz kengayishi, uning sifatining pasayishi va dezinformatsiyaning tez tarqalishi kabi yangi muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dezinformatsiya zamonaviy jamiyatda oddiy noto‘g‘ri ma’lumotdan ko‘ra kengroq va murakkab hodisa bo‘lib, u jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish, siyosiy jarayonlarni manipulyatsiya qilish, ijtimoiy ishonchni susaytirish hamda inson huquqlariga zarar yetkazish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, dezinformatsiyaga qarshi kurashish jarayonida so‘z erkinligini asossiz cheklash xavfi ham mavjud bo‘lib, bu esa mazkur ikki qadriyat o‘rtasida nozik huquqiy muvozanatni ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Bizning fikrimizcha, so‘z erkinligi va dezinformatsiyadan himoya o‘rtasidagi munosabatni qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi institutlar sifatida baholash lozim. Chunki bir tomondan, so‘z erkinligi axborot almashinuvi va jamiyat rivojining muhim omili bo‘lsa, ikkinchi tomondan,



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

dezinformatsiya aynan ushbu erkinlikdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladi. Shu sababli, mazkur tezisning asosiy maqsadi so‘z erkinligi va dezinformatsiya o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish hamda mavjud yondashuvlar doirasida ularning samaradorligini baholashdan iborat.

**Asosiy qism**

So‘z erkinligi va dezinformatsiya o‘rtasidagi munosabatni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, avvalo, ushbu ikki hodisaning o‘zaro bog‘liqligini chuqur anglashni talab etadi. Shuni ta‘kidlash joizki, so‘z erkinligi insonning fundamental huquqlaridan biri bo‘lib, u demokratik jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta‘minlash, hokimiyat ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda ochiq muhokama muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq aynan shu erkinlikning kengayishi, ayniqsa raqamli media sharoitida, axborotning sifat nazoratisiz tarqalishi va dezinformatsiyaning ko‘payishiga olib kelmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot makonida dezinformatsiya oddiy noto‘g‘ri ma‘lumotdan farqli ravishda, maqsadli ravishda jamoatchilik ongiga ta‘sir ko‘rsatishga qaratilgan tizimli va manipulyativ jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda .

Ilmiy yondashuvlar doirasida ushbu muammoni izohlashga qaratilgan turli konsepsiyalar shakllangan. Libertarian modelga ko‘ra, erkin fikrlar almashinuvi sharoitida haqiqat “bozor mexanizmi” orqali ustunlikka erishadi. Biroq, amaliyotda bu modelning samaradorligi shubha ostiga olinmoqda. Sababi, raqamli platformalarda algoritmik tavsiyalar va kontentni sun‘iy kuchaytirish mexanizmlari natijasida manipulyativ axborot tezroq tarqalib, auditoriyaga kuchliroq ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, erkin axborot almashinuvi har doim ham haqiqatning ustuvorligini ta‘minlamaydi. Shu jihatdan libertarian yondashuv zamonaviy raqamli muhitda yetarli darajada moslashuvchan emasligi bilan ajralib turadi.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Harm-based restriction yondashuvi esa so‘z erkinligini faqat boshqa shaxslarga aniq zarar yetkazilgan hollarda cheklash mumkinligini asoslaydi. Bu yondashuv nazariy jihatdan asosli bo‘lsa-da, amaliyotda “zarar” tushunchasining o‘lchovi muammoli hisoblanadi. Chunki dezinformatsiya ko‘pincha bevosita emas, balki bilvosita va uzoq muddatli salbiy oqibatlariga olib keladi. Masalan, noto‘g‘ri axborot jamoatchilik ishonchini pasaytirishi yoki ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirishi mumkin, biroq bu zararlarni aniq va tezkor o‘lchash murakkabdir. Shu sababli ushbu model dezinformatsiya fenomenini to‘liq qamrab olmaydi. Proportsionallik yondashuvi esa mazkur muammoni hal etishda eng muvozanatli mexanizmlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu modelga ko‘ra, so‘z erkinligini cheklash faqat qonuniy, zarur va mutanosib bo‘lgan hollarda amalga oshirilishi lozim. Biroq, amaliyotda “zaruriyat” va “mutanosiblik” mezonlarining turlicha talqin qilinishi huquqni qo‘llashda noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, ushbu yondashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan sud amaliyoti va huquqni qo‘llovchi organlarning professional darajasiga bog‘liq.

Public order modeli jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ustuvor qadriyat sifatida ilgari suradi. Bu yondashuv tezkor choralar ko‘rish imkonini berishi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, uning asosiy xavfi davlat tomonidan haddan tashqari aralashuv ehtimoli bilan bog‘liq. Biroq, amaliyotda aynan “jamoat xavfsizligi” yoki “milliy manfaatlar” kabi keng tushunchalar asosida so‘z erkinligini cheklash holatlari uchrab turadi. Bu esa ushbu modelni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda davlatning ijobiy majburiyatlari alohida o‘rin egallaydi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, davlat faqat aralashmaslik bilan cheklanib qolmasdan, balki erkin axborot muhitini shakllantirish, media pluralizmini ta’minlash va jurnalistlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali so‘z erkinligini faol ravishda ta’minlashi lozim. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aynan ushbu yondashuv



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

dezinformatsiyaga qarshi kurashda eng samarali preventiv mexanizmlarni yaratish imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli davrda platform governance modeli alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu modelga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar axborot oqimining passiv vositachisi emas, balki faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Ayniqsa, algoritmik tavsiyalar tizimi orqali ayrim kontentlarning sun‘iy ravishda ommalashuvi dezinformatsiyaning keng tarqalishiga xizmat qilmoqda. Biroq, platformalarga ortiqcha nazorat vakolatlarini berish ularning xususiy “regulyator”ga aylanishiga va so‘z erkinligining yangi shakllarda cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi nazariy yondashuvlarning har biri muayyan darajada asosli bo‘lsa-da, ularning birortasi alohida holda zamonaviy dezinformatsiya muammosini to‘liq hal eta olmaydi. Sababi, dezinformatsiya bugungi kunda faqat axborot muammosi emas, balki texnologik, siyosiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq murakkab tizimdir. Shu bois, mazkur muammoni hal etishda integrativ yondashuv ya‘ni libertarian erkinlik, zarar mezoni, proporsionallik, davlatning ijobiy majburiyatlari va platforma boshqaruvi elementlarini uyg‘unlashtirgan kompleks modelni qo‘llash zarur.

Shu sababli, quyidagi xulosaga kelish mumkin: so‘z erkinligi va dezinformatsiyadan himoya o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash faqat huquqiy cheklovlar orqali emas, balki ko‘p darajali, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuv orqali amalga oshirilishi lozim. Aynan shunday yondashuvgina bir vaqtning o‘zida ham erkin fikr almashinuvini ta‘minlash, ham dezinformatsiyaning jamiyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish imkonini beradi.

### **Xulosa**



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Xulosa qilib aytganda, so‘z erkinligi va dezinformatsiya o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash raqamli media davrida inson huquqlarini himoya qilishning eng muhim nazariy-huquqiy masalalaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘z erkinligi demokratik jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lsa-da, u dezinformatsiya tarqalishi uchun mutlaq huquqiy asos sifatida talqin qilinmasligi kerak. Chunki yolg‘on va manipulyativ axborot saylov jarayonlari, jamoat salomatligi, shaxs sha‘ni va jamiyatdagi ishonch muhitiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Shu bilan birga, dezinformatsiyaga qarshi kurashish bahonasida so‘z erkinligini haddan tashqari cheklash ham demokratik qadriyatlarga zid oqibatlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli mazkur masalada eng to‘g‘ri yondashuv taqiqlash yoki jazolashga asoslangan model emas, balki erkinlik va javobgarlikni uyg‘unlashtiruvchi integrativ yondashuv hisoblanadi. Bunda libertarian, harm-based restriction, proporsionallik, public order, positive obligations va platform governance nazariyalarining ijobiy jihatlari birgalikda qo‘llanishi lozim.

Bizning fikrimizcha, raqamli axborot makonida davlatning asosiy vazifasi axborotni to‘liq nazorat qilish emas, balki sog‘lom va ishonchli axborot muhitini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Buning uchun media savodxonlikni oshirish, raqamli platformalar faoliyatida shaffoflikni ta‘minlash, faktcheking mexanizmlarini rivojlantirish va cheklovlarni faqat qonuniylik, zaruriyat hamda mutanosiblik mezonlari asosida qo‘llash zarur. Demak, so‘z erkinligi va dezinformatsiyadan himoya o‘rtasidagi muvozanat faqat huquqiy cheklovlar orqali emas, balki ta‘lim, texnologiya va samarali institutlar uyg‘unligi asosida ta‘minlangandagina kutilgan natijani beradi.